

MAXDUMI A’ZAMNING DINIY-FALSAFIY VA TASAVVUFIY QARASHLARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-22-335-339>

Bo‘riboev Abduvohidi Shavkat

TDSHI 1-bosqich magistranti,

O‘zR FA Tarix instituti kichik ilmiy hodimi

+998991979873,

e-mail: abdulvohid.buriboyev98@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada XV-XVI asrlar Movarounnahr tasavvuf maktabining yirik vakili Maxdumi A‘zam Kosoniyning diniy-falsafiy merosi tahlil qilinadi. Allomaning "Risolai vujudiya" va "Risolai ilmiya" kabi asarlari asosida uning vahdat ul-vujud ta‘limoti, ilm va amal birligi hamda inson kamoloti haqidagi qarashlari yoritilgan. Tadqiqotda "vujud dehqoni" konsepsiyasi orqali komil inson g‘oyasining o‘ziga xos talqini va alloma merosining bugungi uchinchi Renessans poydevorini yaratishdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Maxdumi A‘zam, naqshbandiya, tasavvuf, vahdat ul-vujud, vujud dehqoni, ilm va amal, ontologiya, Dahbed, komil inson.

Annotation. The article examines the religious and philosophical heritage of Makhdumi Azam Kosoni, a prominent 15th-16th century Sufi scholar of Mawarannahr. Based on treatises such as "Risala-i Wujudiya" and "Risala-i Ilmiya," the author explores his views on the doctrine of Wahdat al-Wujud, the unity of knowledge and practice, and human perfection. The study highlights the "farmer of existence" concept as a unique interpretation of the Perfect Man and emphasizes the relevance of Kosoni’s spiritual legacy in the context of Uzbekistan’s modern cultural development.

Keywords: Makhdumi Azam, Naqshbandiya, Sufism, Wahdat al-Wujud, farmer of existence, knowledge and action, ontology, Dahbed, Perfect Man.

Movarounnahr – jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk allomalarni kamolga yetkazgan makonlardan biri sanaladi. Ushbu zaminda XV-XVI asrlarda naqshbandiya tariqatining eng yirik piri-murshidlaridan biri – Sayyid Ahmad ibn Mavlono Jaloliddin Xojagiy Kosoniy, tarixda Maxdumi A‘zam nomi bilan ulug‘langan zot yashab ijod qilgan. Quyida Maxdumi A‘zamning diniy-falsafiy va tasavvufiy qarashlari, xususan, uning vahdat ul-vujud ta‘limotiga munosabati, ilm va amal to‘g‘risidagi konsepsiyasi, inson va borliq masalasidagi falsafiy tizimi tahlil etiladi, shuningdek, ularning Sharq falsafiy tafakkuriga qo‘shgan hissasi yuzasidan xulosalar ilgari suraladi.

Maxdumi A‘zam – to‘liq ismi Sayyid Ahmad ibn Mavlono Jaloliddin Xojagiy Kosoniy – 1461 yili (hijriy 866 y.) Farg‘onaning qadimiy poytaxti bo‘lgan Koson shahrining Xonaqoh mahallasida Sayid Jaloliddin ibn Jamoliddin Kosoniy oilasida tug‘ilgan[1,4]. Ulug‘ zotning ota-onalari Muhammad (s.a.v) avlodlaridan bo‘lib, bu

to‘g‘risida ko‘plab tarixiy manbalar, qabr toshlari va tarixiy obidalarning peshtog‘larida yozilgan. Nasabnoma va shajara masalasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘rta Osiyoda shajarlari eng ko‘p qayd etilgan va yozilgan tabaqa Sayyid Ahmad Kosoniylar avlodi hisoblanadi. Jumladan, “Ravoyih ul-quds”, “Silsilat us-siddiqiyn va anis ul-oshiqiyn”, “Jome‘ ul-maqomot”, “Tazkirai azizoning” va boshqa manbalarda mutasavvifning 22 pushtdan so‘ng payg‘ambarimiz (s.a.v)ga avlod bo‘lishi zikr qilingan[2,8].

Ilk ta‘limni otasi Mavloni Jaloliddin va Mir Sayyid Alidan olgan yosh Sayyid Ahmad keyinchalik Xoja Ahror Valiyning shogirdi Mavloni Muhammad Qoziga murid tushgan. Muhammad Qozining rahnamoligida naqshbandiya tariqatidagi irfoniy-falsafiy maktabni puxta egallagan. Sayyid Ahmad tez orada butun Movarounnahr va Xurosonda shuhrat qozongan.

Ko‘p o‘tmay Sayyid Ahmad Kosoniyning ma‘naviy nufuzi Movarounnahr va Xuroson o‘lkalari bo‘ylab keng yoyildi. Karmana hamda Miyonkol hukmdori Jonibek sultonning da‘vatiga binoan alloma Samarqandga ko‘chib o‘tadi. Dastlab Karmanada qo‘nim topgan bo‘sa-da, keyinchalik unga Miyonkolning eng so‘lim va hosildor hududlaridan yer ajratib berildi[2,5]. Tarixiy ma‘lumotlarga ko‘ra, Kosoniy mazkur maskanni obod etib, o‘z qo‘li bilan o‘nta tol ko‘chatini ekkan. Aynan shu bois ushbu manzil “Dahbed” (o‘n ta tol) nomini oladi va bu yerda tasavvuf olamida mashhur bo‘gan Dahbed maktabi qaror topgan.

Sayyid Ahmad Kosoniy Turkiston hududida naqshbandiya silsilasining eng nufuzli namoyandalaridan biri sifatida e‘irof etilgan. Ushbu zabardast mutasavvifning teran ilmiy salohiyati hamda tariqat ta‘limotidagi noyob iqtidori zamondosh ilm ahli tomonidan yuksak baholanib, unga “Maxdumi A‘zam“ degan sharafli unvon berilgan. Islom olamida faqat uch zot shu martabali unvonga sazovor bo‘lgan: Imom A‘zam Abu Hanifa(r.a), G‘avsul A‘zam va Maxdumi A‘zam.

Maxdumi A‘zam Dahbedda istiqomat qilgan kezlari faqat o‘z tariqati vakillarini kamolga yetkazish yoki hukumron tabaqani adolatga chorlash bilan cheklanmagan. U kishi keng fe‘lli murshid sifatida boshqa tariqat a‘zolari bilan ham doim ravishda samarali muloqot va aloqalarni yo‘la qo‘ygan.

Ayrim manbalarda[3,292] Maxdumi A‘zamning vafot sanasi hijriy 954 (milodiy 1544) yil deb ko‘rsatilgan bo‘sa-da, tarixiy haqiqatga yaqinroq ma‘lumot mashhur “Samariya” kitobida[4,58] bayon etilgan. Mazkur manbaga ko‘ra, u zotning vafoti hijriy 949-yil 21-muharram (milodiy 1542-yil 1-may) dushanba kuni peshin vaqtiga to‘g‘ri keladi.

Maxdumi A‘zamning falsafiy-tasavvufiy merosini to‘liq tasavvur etish uchun avvalo uning borliq haqidagi ta‘limotiga e‘tibor qaratish zarur. “Risolai vujudiya“ asari mutafakkirning ontologik qarashlarini tizimli bayon etuvchi asosiy manba hisoblanadi.

Tasavvuf falsafasida borliq masalasi vahdat ul-vujud, vahdat ul-mavjud va vahdati shuhud nazariyalari orqali yoritiladi. Vahdat ul-vujud – borliqning birligi ta‘limotiga ko‘ra, hamma narsa Allohda ifodalanganidek, Alloh ham hamma narsada namoyon bo‘ladi. Ya‘ni butun borliq Allohning nuri va jilvasi sifatida talqin etiladi. Alloh yagona haqiqiy borliq, qolgan narsalar esa Uning tajalliyoti – aks-sadosi. Tabiat,

koinot va odamzot ham Alloh nurining jilvalanishidan iborat ekanligi bois, ular ehtirom va sig‘inishga loyiq[5,8].

Maxdumi A‘zam “Risolai vujudiya”da vujudni ikki xilga ajratadi: birinchisi – haqiqiy, boqiy, sarmadiy (abadiy) vujud; bu Haq subhonahu va taoloning O‘z vujudi. Ikkinchisi – oraziy, majoziy, foniy vujud, ya’ni ko‘zga ko‘rinib turadigan, ammo o‘tkinchi bo‘lgan vujud. Ushbu tasnifning falsafiy ahamiyati shundaki, Maxdumi A‘zam insonning bu dunyodagi vujudini majoziy desa-da, uni hech ham bekor yoki nochor narsa deb sanmaydi, aksincha, uni inson kamoloti uchun zarur vosita – “markab” sifatida baholaydi.

Mutafakkirning inson to‘g‘risidagi ta‘limoti ham yuqoridagi ontologik asosga tayanadi. U inson tanasida ikki xil ruh mavjudligini ta‘kidlaydi: hayvoniy ruh va ilohiy ruh. Hayvoniy ruh tananing harakati va nafsoniy ehtiyojlari uchun berilgan “markab” vazifasini o‘taydi. Ilohiy ruh esa Alloh jamol va jalolini bu dunyoga jilva qildirish uchun inson qalbiga joylangan ilohiy omonat. Shundan kelib chiqib, mutafakkir insonni “borliq mevasi” deb ta‘riflaydi[5,16] – olam yaratilishi va butun mavjudot ana shu ulug‘ mavjudotni tarbiyalash xizmatida.

Naqshbandiya tariqatining asosiy shioridagi “Dilingiz Alloh bilan, qo‘ling ish bilan band bo‘lsin” tamoyilida tana va ruh uyg‘unligiga bo‘lgan talab mujassamlashgan. Maxdumi A‘zam ushbu shiorga monand ravishda tana va ruhni bir-biriga zid deb qaramaydi, balki ularning o‘zaro to‘ldiruvchi aloqadorligini uqtiradi. Tana ruh kamoloti uchun vosita, ruh esa tana va jamiyatning ma‘naviy yuksalishi uchun ichki kuch manbasi hisoblanadi. Aynan shu sababdan naqshbandiya tariqati tarki dunyoni emas, balki dunyoda ishlab, mehnat qilib, o‘z vujudini hosildorlik yo‘liga yo‘naltirishni targ‘ib etgan.

Maxdumi A‘zamning falsafiy-tasavvufiy ijodida ilm va amal masalasi o‘ziga xos asosiy o‘rin egallaydi. “Risolai ilmiya” asari uning nazariy bilishga oid qarashlarini tizimli ifodalovchi asosiy manba bo‘lib, unda Maxdumi A‘zam zohiriy va botiniy ilm tasnifini chuqur tahlil etadi.

Zohiriy ilm – sezgilar orqali idrok etiladigan, tashqi olamga doir bilim. Botiniy ilm esa – qalbning holatini tushunish, ichki dunyoni yomon xulq va nafsoniy illatlardan tozalab, bandaning Allohga yaqinlashishini ta‘minlovchi ma‘rifat. Mutafakkirning ta‘kidlashicha, zohiriy ilmni egallash botiniy bilimga yo‘l ochadi, lekin zohiriy ilm amalga tatbiq etilmasa, u “sarob”ga teng. Ilmsiz kishi chiroq piligiga o‘xshatiladi: yog‘i yo‘q bo‘lsa, o‘zi yonib-kuyadi, ammo atrofga yorug‘lik bermaydi.

Shu nuqtai nazardan, Maxdumi A‘zam ilmni amaldan ajralgan holda emas, balki ularni noyob birlik sifatida ko‘radi. “Risolai vujudiya”dagi mashhur baytda u shunday yozadi: “Ilm amal birla ganj erur, ilmsiz amal bilgil ranj erur”[6]. Maxdumi A‘zam yozadiki, ilmu amalning yaxshi natija berishi uchun komil mukammal ustozdan ta‘lim olib, uning tomonidan ruxsat berilgan bo‘lishi lozim. Mutafakkir, bundan tashqari, ilmning qadriga yetmaydigan yoki yovuz maqsadlarda foydalanishga tayyor kishilarga ilm o‘rgatish – ilmni isrof qilish deb hisoblagan.

Maxdumi A‘zamning o‘ziga xos va tarixda ilk bor ishlatgan tushunchalaridan biri “vujud dehqoni” konsepsiyasidir. O‘rta Osiyo xalqi tafakkuriga yaqin, tushunarli bu

obraz orqali mutafakkir “komil inson“ tushunchasini yangicha talqin etadi. Dehqon o‘z yerini xas-xashaklardan tozalab, yumshatib, undan mo‘l hosil olgani kabi, komil inson ham o‘z vujudini botiniy illatlardan tozalab, ilohiy nur tajalliyotini qabul etishga tayyor holatga keltiradi[5,20]. “Risolai bittixiya” asarida ushbu majoz o‘zining mantiqiy davomini topadi: muallif “Dunyo – oxirat ekinzoridir” hadisiga tayanib, mukammal murabbiy siymosini gavdalandiradi. Bunday murabbiy insonning tana va ruhiyatiga ma’naviyat urug‘ini qadoqlovchi mohir “vujud dehqoni” sifatida talqin etiladi[7].

Maxdumi A‘zamning qarashlariga ko‘ra, so‘fiy xonaqohda uzlatda yashashi bilan birga, jamiyatdan uzilib qolmasligi kerak edi. U zot tariqat ahlini xalq farovonligi yo‘lida hukmdorlar va omma bilan doim, ta’sirli muloqotda bo‘lishga chorlardi. Islom dinining rivoji va tariqat g‘oyalarini yoyish maqsadida so‘fiylarning ijtimoiy yig‘ilishlarda ishtirok etishini muhim vazifa deb hisoblardi.

Tarixiy manbalarda qayd etilishicha, Maxdumi A‘zamning ma’naviy suhbatlari nafaqat musulmonlar, balki yahudiy jamoasi vakillarini ham o‘ziga jalb etgan. Allomaning ta’sirli nutqi va chuqur ilmi sababli, uning ma’ruzalarini ixlos bilan tinglaganlar o‘zga din vakillarining bir qismi keyinchalik islom dinini qabul qilganlar[8,23]. Maxdumi A‘zam psixologik ta’sir etish mexanizmlarini yaxshi egallagan kishi bo‘lgan va amaliy faoliyatida gipnoz, telepatiya, telekineziya, levitatsiya, transportatsiya* hodisalaridan o‘rinli foydalana olgan. Alloma o‘zining g‘ayritabiiy iqtidori va maxfiy ilmlari mohiyatini har kimga ham oshkor qilavermagan. Bu sirlarni faqatgina qat’iy ma’naviy sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan hamda ishonchni oqlab, pinhona bilimlarni asrashga qodir bo‘lgan eng sadoqatli shogirdlarigina omonat sifatida topshirgan.

Maxdumi A‘zamning tasavvufiy-falsafiy merosini umumlashtirgan holda aytish mumkinki, u vahdat ul-vujud ta’limoti doirasida insonning hayvoniy va ilohiy ruhini uyg‘un tarbiyalash zaruriyatini asosladi hamda “vujud dehqoni” konsepsiyasi orqali komil inson g‘oyasini agrar madaniyatga mos tushunarli obrazda talqin etdi. Shu bilan birga, “Ilm va amal” nazariyasi bilan zohir va botin ilmlari aloqadorligini ko‘rsatib, naqshbandiya tariqatini tizimlashtirdi hamda ijtimoiy ziddiyatlarni boshqarish metodlari orqali mintaqada tinchlikni saqlashga ulkan hissa qo‘shdi.

Maxdumi A‘zamning merosi bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatini yo‘qotmagan. Xususan, Yangi O‘zbekistonda uchinchi Renessans poydevorini yaratish maqsadida ma’naviy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, buyuk ajdodlarimiz xotirasini e‘zozlash va ularning ilmiy merosini chuqur o‘rganishga qaratilgan davlat siyosati buni yaqqol tasdiqlaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan yurtimizdagi tabarruk qadamjolarining obod etilishi, xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarining tashkil etilishi hamda allomalarimizning noyob

* **Gipnoz** - inson ong oldi jarayonlariga ta’sir qilib, uning irodasini yo‘naltirish; **telepatiya** – boshqa bir shaxsning ruhiy holati yoki fikrlarini masofadan turib his qilish; **telekineziya** – fikr quvvati yordamida moddiy buyumlarga ta’sir o‘tkazish; **levitatsiya** – ruhiy yenergiya hisobiga muallaq turish; **transportatsiya** – inson vujudining bir lahzada uzoq masofaga ko‘chishi. Bu hodisalar (gipnozdan boshqa) parapsixologik hodisalar bo‘lib, ularning mohiyati hozirgi zamon psixologiya fanining tadqiqot ob’ektiga kirmaydi, shu bois, bu tushunchalar fandan tashqari, ya’ni metafizik bilimlar sirasiga kiritiladi.

asarlari qayta nashr etilayotgani olimlarga va ilm-fanga bo‘lgan yuksak ehtiromning namunasidir. Yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda uning bag‘rikenglik va gumanizm g‘oyalari, “qalb va qo‘l” uyg‘unligi tamoyili, ilm va amalning ajralmasligi haqidagi ta’limoti muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, Maxdumi A’zam merosini chuqur tadqiq etish Sharq falsafasi va tasavvuf sohasidagi zamonaviy izlanishlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Нуриддинов А. Махдуми Аъзам Косоний. – Тошкент: Фан, 2008. – 160 б.
2. Каттаев К. Махдуми Аъзам ва Дахбед. – Самарқанд: Суғдиёғна, 1994. – 80 б.
3. Ҳасанхўжа Нисорий. Музаққир ул-аҳбоб. – Тошкент, 1993. – 342 бет.
4. Абу Тоҳир Хўжа. Самария. – Тошкент: Камалак, 1991. – 56 б.
5. Зоиров Е. Махдуми Аъзам (рисола). – Тошкент: Abu matbuot-konsalt, 2011. – 28 б.
6. Ahmad Hojagiy Kosoniy. Risolayii vujudiya. Qo‘lyozma. O‘z R FASHI. №501/III. – 17 b.
7. Ahmad Hojagiy Kosoniy. Risolayii bittixiya. Qo‘lyozma. O‘z R FASHI. №501/XVIII. – 8 b.
8. Тураев Б.О. Махдуми Аъзам: ҳаёти ва илмий-ма’навий мероси. – Тошкент: Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи, 2020. – 48 б.